



O'QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBALAR

Xoliqova Matluba Mardon qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi assistenti
E-mail: xoliqovamatluba5@gmail.com*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14878161>

Annotasiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni talab etishi, xorijiy va mahalliy tajribalar uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy va milliy o'ziga xos usullarni birlashtirish o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, bu esa ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, xorijiy va mahalliy tajribalarni o'rghanish, ularni taqqoslash va o'qitish jarayoniga samarali usullarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, bu orqali ta'limning sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro talablar darajasida rivojlantirishga hissa qo'shilishi haqidagi fikrlar to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qitish usullari, xorijiy va mahalliy tajribalar, ta'lim tizimi, o'qitish metodikasi, o'quvchi, ta'lim sohasi, fan va texnika, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье указано, что совершенствование образовательного процесса сегодня требует внедрения современных педагогических технологий, обеспечения гармонии зарубежного и отечественного опыта, сочетания современных и отечественных специфических методов повышения эффективности учебного процесса, которые повышают качество образования и создают основу для всестороннего развития студентов, изучения зарубежного и отечественного опыта, сравнения его и разработки рекомендаций по внедрению эффективных методов в учебный процесс, тем самым повышая качество и эффективность образования, а также мнения о том, как способствовать развитию знаний и навыков молодежи на уровне международных требований.

Ключевые слова: методы обучения, зарубежный и отечественный опыт, система образования, методика обучения, студент, сфера образования, наука и техника, педагогическая технология.

Annotation. This article discusses the ideas that improving the educational process today requires the introduction of modern pedagogical technologies, ensuring the harmony of foreign and local experiences, combining modern and national specific methods to increase the effectiveness of the teaching process, which in turn improves the quality of education and creates the basis for the comprehensive development of students, studying foreign and local experiences, comparing them and developing recommendations for introducing effective methods into the teaching process, thereby improving the quality and effectiveness of education, as well as contributing to the development of knowledge and skills of young people at the level of international requirements.

Key words: teaching methods, foreign and local experiences, education system, teaching methodology, student, field of education, science and technology, pedagogical technology.

KIRISH VA DOLZARBLIGI. Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli



raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqr bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda [1].

Mamlakatimiz tayanchi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o‘zining g‘oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta’lim dasturlari, bugungi pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Bugungi kundagi har bir yangilik, shubhasiz, o‘qituvchilarni qiziqtiradi va ularni o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashga, o‘z fanini puxta o‘rganishga undaydi. Avvalgi o‘quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, yangi Milliy o‘quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo‘lib, o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgandir. O‘quv dasturlarida baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida esa o‘quvchilarda shakllangan ko‘nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o‘quv yuklamalari optimallashtirilb, o‘quvchilarning yoshi, qiziqishiga ko‘ra mavzular ham qayta ishlandi. Maqsad esa o‘quvchilarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, shu bilan birga bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishidir. Milliy o‘quv dasturi asosidagi fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Ya’ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiradi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda kiritilgan. Ta’lim-tarbiya jarayoni nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun esa nutqiy muloqot eng zarur vosita hisoblanadi [2].

METODLAR O‘RGANISH DARAJASI. O‘qitish usullarini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganishda ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohada o‘tkazilgan tahlillar o‘qitish usullarining rivojlanish tendensiyalari, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri va natijadorligi bo‘yicha keng qamrovli ma’lumotlar beradi. Xorijiy adabiyotlar tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, masalan Finlandiya ta’lim tizimi haqida yozilgan asarlarda (Pasi Sahlbergning “Fin Lessons” kitobi) ta’limning yuqori darajasi o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltiruvchi va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullar bilan izohlanadi.

Xorijiy pedagoglar, jumladan, John Dewey va Vygotsky ishlarida konstruktivistik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning o‘qituvchilar bilan faol muloqotda bo‘lishi, ularning shaxsiy tajribasini hisobga olish orqali bilim olish jarayonini tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.



Mahalliy adabiyotlar tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mahalliy olimlar, jumladan, Q.Yo‘ldoshev, M.G‘ofurov va boshqalarning ilmiy ishlarida ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv, interfaol usullar va milliy xususiyatlarga mos metodlarni joriy etishning ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda STEAM texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, jumladan, N.Bozorovning ishlari, yoshlarning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy tajribalar bir-birini boyituvchi o‘ziga xosliklarga ega. Xorijiy tadqiqotlar ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishni taklif qilsa, mahalliy tadqiqotlar esa milliy madaniyat va qadriyatlarni hisobga olgan holda samarador usullarni qo‘llashga urg‘u beradi. Bu yondashuvlarni uyg‘unlashtirish o‘qitish usullarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlar ta’lim tizimiga oid tajribasini o‘rganish, tahlil qilish, milliy ta’lim tizimiga mos bo‘lgan jihatlarni amaliyotga tatbiq qilish bizdagi ta’lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun juda muhimdir. Ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda dunyoda va jamiyatda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olish, ana shu asosda qilinadigan ishlar mazmunini aniqlash juda muhim.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda bolalar turli xil gadjetlar va internet ta’sirida ulg‘aymoqdalar. Bu bir tomonidan ularning, aqliy rivojlanishi, tafakkurining o‘sishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchisi tomonidan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga ko‘rinmas to‘siq qo‘yadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi ko‘rinishi “online muloqot” vujudga kelgan. “Online muloqot”da esa turli xil tasvir va simvollardan keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hissiyor, mimika, pantomimika, ta’sirchanlik kabilalar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik ko‘nikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bolalar erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiyalmay muloqot qila oladigan, o‘z ona tilisini sevadigan, o‘zligini anglaydigan, ma’naviy yetuk, o‘tkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim [3].

Hozirgi zamonda ta’limning qadr-qimmati, obro‘ va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur. Jahon tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim-tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashga qo‘srimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Yurtboshimiz mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha



sohalarga, islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lismi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lismi rivojlanayotganligi maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumy o'rta ta'lismi sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, uning rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi sa'y-harakatlari bilan o'lchanadi [4].

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lismi-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lismi tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lismi-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz [5]

TADQIQOT NATIJALARI O'qitish usullarini takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish, samarali ta'lismi metodlarini joriy etish uchun muhim hisoblanadi. Quyida xorijiy va mahalliy tajribalardan misollar keltiriladi.

Xorijiy tajribalar:

Finlandiya ta'lismi siyosatida uchta muhim tamoyil mavjudligini ta'kidlash mumkin: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lismi tengligini ta'minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70-yillaridan 2000-yillarga qadar Finlandiya ta'lismi tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin. Ta'lismi muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lismi muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlandiya ta'lismi tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Singapur ta'lismi tizimi

Bugun ta'lismi iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta'lismi tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganidan ham anglash mumkin.

Masalan, maorifga ulkan sarmoya kiritib, yuksak natjalarga erishayotgan davlatlardan biri Singapurdir. Singapur Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan davrda uning sanoati asosan mineral yoqilg'i va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan edi. Shunga qaramay, o'sha davrdayoq ta'lismi tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda mamlakat va xorij oliy o'quv



yurtlarida ilm-fanning eng zamonaviy yo‘nalishlari va ilg‘or texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

AQSh ta’lim tizimi. Amerika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

1) bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

2) 1-8-sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (buunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);

3) 9-12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

4) Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagi ta’lim bosqichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura va doktoranturalardir.

AQShda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlari davlat, jamoa, xususiylar tasarrufida va dinniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan besh yoshgacha xususiy yoki davlat bog‘chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog‘chalar kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yonlash bir haftada 200 dollarga tushadi. Bog‘chalarda yagona bird astur mavjud emas. Kerak bo‘luvchi hamma jihozlar va ovqatni ota-onalarning o‘zi olib keladi. Besh yoshdan esa “Kinder garde” deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta’lim boshlanadi. Boshlang‘ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang‘ich maktablarda umumi savodxonlik va kasbga yo‘naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan sinfga ko‘chish o‘quvchining o‘zlashtirganlik darajasiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to‘garaklar, uchrashuvlar, sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to‘lash lozim.

Yaponiya ta’lim tizimi xususiyatlari: Yaponiya juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va xalqaro hamkorlik maydonida faol ishtiroy etib kelmoqda.

Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi.



Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-g‘arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishga kiritish masalasini qo‘ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligini anglatdi [6].

Bolalar bog‘chasi Yaponiyada Vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmashin, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi [7].

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo‘lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishslash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etilmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo‘llarini o‘rgansh orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin [8].

Vatanimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad mакtab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr-qimmati, obro‘ va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur [9].

XULOSALAR. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim jarayonini takomillashtirishda texnologiyalardan samarali foydalanish va o‘quvchini markazga qo‘yan yondashuv ustuvorlik kasb etadi. Interaktiv va loyiha asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘zbekistonda interfaol ta’lim usullarini joriy qilishga e’tibor kuchaymoqda, lekin texnologiyalarni kengroq tatbiq etishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. An’anaviy ta’lim usullari hali ham asosiy o‘rinni egallaydi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Mirziyoyev Sh.M “ Ilm-fan innovatsion taraqqiyot asosi”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston”, Toshkent 2022. B.224.
- Ergasheva T.F “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish borasida xorijiy tajribalar” Образование и инновационные исследования (2023 год арэл) B.127.



3. Olloqova O‘M “Kommunikativ kompetensiya o‘quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili”, “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” 2023 № 8. B.182.
4. Raximova R.B “Ta’lim darajasi samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish” “Международный научный журнал Новости образования в XXI веке” № 6(100)б, часть январь, 2023 г. С.490-491.
5. Nomozova M.T “Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji”, Международный научный журнал “Новости образования исследование в XXI веке” № 8(100), часть 2 март, 2023 г.С.703.
6. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. <http://www.mext.go.jp/> 7-9.s
7. Germany’s Vocational Educational at a glance. E-Mail: books@bmf.bund.de Internet: <http://www.bmbf.de>. 13-17.
8. Raximova R.B “Ta’lim darajasi samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish”, Международный научный журнал “Новости образования исследование в XXI веке” № 6(100), часты 1 январь, 2023 г. С.490.
9. Abdiyeva K “Ta’lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish”. “Oriental art and culture” scientific-methodical journal (3) 111/2020.